

## YURIDIK SHAXS VA YURIDIK SHAXS SIFATIDA SHAKLLANMAGAN XUSUSIY TADBIRKORLARGA TELEFON ALOQASI XIZMATLARINI KO'RSATISH SHARTNOMASI № 31-1/1

26» YANVAR 2022 y.

Boysun shaxar

O'zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligi tomonidan berilgan litsenziya va "O'zbektelekom" aksiyadorlik kompaniyasi Ustavi asosida ish yurituvchi "O'zbektelekom" AK Surxondaryo filiali direktori SH.Norkuchkorov nomidan bundan buyon "Operator" deb ataluvchi Boysun telekommunikatsiya boglamasi boshligi G.Gafforov bir tomondan va bundan buyon «Abonent» deb ataluvchi,

## Yuridik shaxs (Xususiy tadbirkor)

Talabnoma beruvchi yuridik shaxs raxbarining F. I. SH. S.Djurakulova Talabnoma beruvchi yuridik shaxs nomi **Boysun tuman Maxalla va oilani qo'llab-quvvatlash bo'limi** Talabnoma beruvchi yuridik shaxs Manzili: **Boysun tuman Tog'chi maxallasi Shalola ko'chasi** Talabnoma beruvchi yuridik shaxs raxbarining uy manzili va telefon raqami **Boysun tuman Kosiblar maxallasi**

ikkinchi tomondan O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga va «Umumiy foydalanishdagi telekommunikatsiyalar tarmog'ida telefon aloqasi xizmatlarini ko'rsatish qoidalariga» binoan quyidagilar to'g'risida ushbu shartnomani tuzdilar:

## 1. SHARTNOMA PREDMETI

Operator telefon aloqasi, internet, va aloqa jixozlar, xizmatlarini ko'rsatish, Abonent esa, shartnoma shartlariga muvofiq ushbu xizmatlar uchun to'lov to'lash majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

1.1 Abonentga ajratilgan abonent raqamlari ro'yxati. **998(76) 3351087** ulardan ma'lumot xizmatlari uchun

1.2 Abonent (oxirgi) qurilmasi turi, ularning soni, o'rnatilish joyi aloga (telefon, uyali telefon, modem, faks, teleks, internet va boshqalar)

1.3 oxirgi qurilmasigacha xizmat kursatiladi. (oxirgi qurilmasi, taqsimlash shkafi, bino, idoraviy ATS...)

1.4 To'g'ridan-to'g'ri simlar (soni, ularning raqamlari)

1.5 Parallel qurilmalarning soni, rakami

1.6 Kursatilgan xizmatlar to'lovi bo'yicha QQS mavjudligi KKS bilan **Mavjud** (QQS bilan, QQSSiz)

1.7 Abonent toifasi xujalik byudjet **Byudjet** (byudjet, xo'jalik hisobidagi)

## 2. TOMONLARNING MAJBURIYATLARI

## 2.1 Operator quyidagilarga majbur:

2.1.1 O'zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligi standartlari, qoidallari va normalariga muvofiq o'z vaqtda, belgilangan sifat darajasida telefon aloqasi xizmatlarini ko'rsatishga.

2.1.2 Abonentning stansiya texnik nosozliklari va liniya-kabel shikastlanishlarini bartaraf etishga arizalarni qabul qilish, ro'yxatga olish va ularni O'zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligi tomonidan belgilangan 20 kundan oshmagan, normativ muddatlarda bajarilishini ta'minlashga.

2.1.3 Telefon aloqasi Abonentning aybisiz buzilgan hollarda, Abonent tomonidan ta'mirlash byurosiga ariza berilgan kundan boshlab, abonent qurilmasining ishlamagan butun davri uchun abonent to'lovlari qayta hisob-kitob qilishga.

2.1.4 Stansiya va liniya-kabel inshootlarini rejadagi rekonstruksiya qilish ishlari natijasida telefon aloqasi vaqtincha uziladigan hollarda, Abonentlarni ommaviy axborot vositalari orqali xabardor qilishga.

2.1.5 Texnik sabablarga ko'ra, abonent raqamining o'zgartirilishi to'g'risida taqdim etilgan haqidagi xabarnoma bilan Abonentni yozma ravishda kamida 10 kun oldin xabardor qilishga.

2.1.6 Yangi telefon stansiyalarining joriy etilishi va telefon tarmoqlarini rekonstruksiya qilinishi munosabati bilan Abonentning roziligisiz, lekin amaldagi «Qoidalar»ga asosan oldindan xabardor qilgan holda, telefon raqamlarini bepul almashirishga.

2.1.7 Abonentning arizasiga ko'ra, arizada keltirilgan muddatga raqamni saqlagan holda, telefonni vaqtincha o'chirishga. Bunda raqamni saqlanish vaqti uchun abonent to'lovi oldindan undiriladi.

2.1.8 Mahalliy telefon aloqasi xizmatlariga vaqtincha haq to'lash tizimidan foydalangan holda hisob varag'ini chiqarishda haq to'langan davrga alohida haq uchun batatsiz izohlangan hisobni taqdim etishga.

2.1.9 Operatorda ro'yxatga olinmagan yoki muvofiqlik sertifikatiga ega bo'lmagan Abonent tomonidan foydalaniladigan oxirgi qurilmalar (telefon apparatlari, telematik xizmatlar, ma'lumotlar uzatish qurilmalarini, radiotelefonlar, radiouzaytirgichlarni, raqamni avtomatik aniqlagichi (RAA) va hokazom) ikki tomonlama dalolatnoma tuzgan holda o'chirishga.

2.1.10 Abonent qurilmasini telefon aloqasi tarmog'idan vaqtincha uzib qo'yish yo'li bilan telefon aloqasi tarmog'idan foydalanishini to'xtatish:

- Mahalliy, xalqaro va shaharlararo telefon aloqasi xizmatlariga to'lovlar, o'chirib qo'yishdan kamida 10 kun oldin Abonentga bu haqida telefon orqali yoki yozma xabarnoma bilan ma'lum qilinib, belgilangan muddatda to'lanmaganda;

- Abonent tomonidan telekommunikatsiyalar Operatorining kommutatsiya uskunalari normal ishlashini buzilishga olib kelishi mumkin bo'lgan abonent qurilmalaridan foydalanish qoidallari buzilganida;

- 2.2.7-band shartlari buzilganida, ikki tomonlama dalolatnoma tuzgan holda buzilishlar bartaraf etilgunga qadar;

Abonent qurilmalarining vaqtincha o'chirilishiga olib kelgan buzilishlar bartaraf etilgandan keyin, ko'rsatilgan xizmatlar uchun haq, shuningdek abonent qurilmasi Abonent aybi bilan ishlamagan vaqt uchun abonent to'lovi Abonent tomonidan to'langandan keyin bir kecha-kunduz ichida abonent qurilmasini ulash. Bunda ulash uchun to'lov olinmaydi.

2.1.11 Abonent tomonidan sotib olingan telematik xizmatlarning oxirgi qurilmalarini (telefaks, teleks, modem, videoteks, internet, ma'lumotlar uzatish va boshqalar) shartnomaga qo'shimchalar kiritgan holda (7-bo'limga binoan) ro'yxatga olishga.

2.1.12 SHartnoma shartlariga binoan, barcha ko'rsatilgan telekommunikatsiya xizmatlari uchun Abonent tomonidan to'lovlar to'langanida, uning xohishiga ko'ra shartnomani bekor qilishga.

## 2.2 Abonent quyidagilarga majbur:

2.2.1 O'z telefoni va/yoki boshqa oxirgi qurilmalardan amalga oshirilgan, ko'rsatilgan telefon aloqasi xizmatlari (shu jumladan, tarmoqlarning texnik imkoniyatlari bilan belgilanadigan va barcha Abonentlar uchun ochiq bo'lgan telekommunikatsiyaning qo'shimcha xizmatlaridan, jumladan intellektual tarmoqlardan foydalanilganligi, ma'lumotlar uzatish va Internet, axborot resurslaridan foydalanish xizmatlari tarmog'idan parolizisiz foydalanilganligi) uchun o'z vaqtda to'lovni amalga oshirish. Ushbu shartnomada ko'rsatilmagan va talaba binoan ko'rsatilgan xizmatlar uchun amaldagi tariflarga muvofiq haq to'lash.

2.2.2 Har oyda bir marotaba Operator bilan to'lovlarni o'zaro solishtirish dalolatnomasini tuzish.

2.2.3 Operatorga tegishli yoki Operator tomonidan xizmat ko'rsatiladigan va Abonent foydalanayotgan telefon simi va boshqa uskunalarni but va soz (ishga yaroqli) holatda saqlash. Abonentga tegishli yoki Abonent tomonidan ijaraga olingan telekommunikatsiyalar vositalarining texnik normalarga mosligini ta'minlash.

2.2.4 Aloqa buzilganligi to'g'risida telekommunikatsiya bog'lamasining ta'mirlash byurosiga o'z vaqtda xabar berish.

2.2.6 Operator xodimlarida tegishli, amal qilish muddatiga ega bo'lgan suratli, muhr bosilgan shaxsiy guvohnoma, ishlarni bajarish uchun naryad mavjud bo'lganda, Abonentning «Qoidalar»ga va ushbu shartnomaga rioya qilishini tekshirish yoki Abonent talabnomasi bo'yicha ta'mirlash ishlari bajarish uchun ruxsat berish 2.2.7 Abonent qurilmasidan taksonof sifatida yoki Internetga ulanib, pulli xizmatlar ko'rsatish uchun foydalaniladigan Operator tomonidan ajratilgan telefon apparatlariga binoan telekommunikatsiya xizmatlarini qonunda belgilangan tartibda amalga oshirish. Ushbu band buzilgan holda, Operator ikki tomonlama dalolatnomani rasmiylashtirish orqali buzilishlar bartaraf etilgunga qadar, Abonentning telekommunikatsiyalar tarmog'idan foydalanishini to'xtatib qo'yish huquqiga ega. Qoidalar takror buzilganda shartnoma bir tomonlama bekor qilinadi.

2.2.8 Abonent o'zining abonent liniyasidan va oxirgi terminal qurilmasidan Internet tarmog'iga ulanish uchun foydalanayotgan va jumladan qayta ulanish dasturlariga binoan vaqtincha boshlab u chiquvchi telefon trafiklariga ham javobgardir.

2.2.9 Abonent qurilmasi sifatida faqat sertifikatlangan telefon apparatlari va boshqa qurilmalardan foydalanish. O'zbekiston Respublikasining muvofiqlik sertifikati bo'lmagan raqamni avtomatik aniqlovchi (RAA) qurilmalarni qo'llamaslik.

2.2.10 O'zboshimchalik bilan oxirgi qurilmalarni o'rnatmaslik, parallel telefon apparatlari yoki boshqa radioaloqa, telematik xizmat va ma'lumotlarni uzatish oxirgi qurilmalarini ulamaslik. Ushbu qurilmalarni ulash Operator xabardor qilingandan so'ng va muvofiqlik sertifikatiga ega bo'lganda amalga oshiriladi.

Abonent liniyasiga Operatorda ro'yxatga olinmagan abonent qurilmalari Abonent tomonidan o'zboshimchalik bilan ulangan vaqtini aniqlash mumkin bo'lmaganida, abonent to'lovi joriy yilning boshidan undiriladi.

2.2.12 Telekommunikatsiyalar tarmoqlarining ish sifatini pasayishiga yoki shikastlanishiga yo'naltirilgan harakatlar qilmaslik.

### 3. TELEFON ALOQASI XIZMATLARIGA HAQ TO'LASH

- 3.1 Telefon aloqasi, internet va aloqa xizmatlari haq to'lash qonun hujjatlariga muvofiq tasdiqlangan tariflar bo'yicha amalga oshiriladi va xizmatlar ko'rsatilgan paytda amalda bo'lgan tariflar bo'yicha 90000 so'm (to'qqiz ming so'm) haq to'lanadi.
- 3.2 Telekommunikatsiya xizmatlari uchun to'lovlar, to'lov talabnomasi (hisob-varag'i) asosida aksept tartibida yoki O'zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitob qilish bo'yicha Nizomga muvofiq to'lov topshiriqnomasi asosida pul o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.
- 3.3 Mahalliy, shaharlararo va xalqaro telefon aloqasi xizmatlariga to'lov oldingi oy uchun to'lov summasidan 100 foiz miqdorda quyidagicha amalga oshiriladi:  
- oldindan haq to'lash yo'li bilan;  
- hisob-kitob davriga kechiktirish yo'li bilan.
- 3.4 Mahalliy tarmoq xizmatlaridan foydalanilgan uchun to'lov hisobot (joriy) oyining so'nggi sanasidan kechiktirmasdan amalga oshiriladi. Oldindan haq to'lashni amalga oshirishda to'lovni qabul qilish bir oydan kam bo'lmagan, lekin 12 oydan oshmaydigan muddat uchun amalga oshiriladi.
- 3.5 Telefon aloqasi, internet va aloqa xizmatlari xizmatlari uchun oldindan haq to'lashda avans to'lovining summasi Operator tomonidan joriy etilgan billing tizimi orqali quyidagi ketma-ketlikda kamaytirilib boriladi:  
SHartnomaning umumiy summasi QQS bilan 90000 so'm, to'qqiz ming so'm  
so'mni tashkil etadi. SHundan QQS 11739,13 (bu bir ming yetti yuz oltiz to'qqiz so'm 13 tashkil etadi)
- Ushbu bandda ko'rsatilgan xizmatlar uchun tariflar oshganda, ular yuzasidan hisob-kitoblar avans summasi tugagunga qadar, agar ushbu xizmatlar yuzasidan to'lov universal xizmatlarga tariflar o'zgarishi to'g'risida e'lon qilinguncha amalga oshirilgan bo'lsa, avvalgi tariflar bo'yicha amalga oshiriladi.
- 3.6 Mahalliy (xizmatlarga haq to'lashning vaqtqay tizimi joriy qilingan bo'lsa), xalqaro va shaharlararo telefon va internet aloqasidan, shu jumladan, ma'lumotlarni uzatish va telematik xizmatlardan foydalanilgan uchun to'lovni ham qo'shganda, to'lov hisob varaqasida ko'rsatilgan sanadan boshlab, 15 kun muddat ichida amalga oshiriladi.
- 3.7 Abonent hisobot davridan keyingi bir oy ichida telekommunikatsiya xizmatlariga haq to'lash bo'yicha, shu jumladan telefon o'chirilgan vaqt uchun qarzni to'lama yoki 2.2.7-band takror buzilsa, Operator telefon raqamini olib qo'yish va bu haqda Abonentni yozma ravishda kamida 10 kun oldin topshirilganligi to'g'risidagi xabarнома bilan xabardor qilishi orqali shartnomani bir tomonlama bekor qilishga haqlidir. Telefon yoki boshqa qurilmalarni yangidan o'rnatish ariza berilgandan so'ng texnik imkoniyatlarga ko'ra, shartnoma bekor qilingan davrdagi Abonentning hisobidagi qarzlari uzilgandan keyin 12 oy ichida tarif bo'yicha o'rnatish haqining 50 foizi to'langandan so'ng amalga oshiriladi. Bu holatda umumiy asosda yangi telefon raqami beriladi.
- 3.9 Abonent to'lanishi lozim bo'lgan summadan, so'zlashuv davomiyligi yoki so'zlashuvning unga tegishligidan norozi bo'lganda, hisob varag'ini olgandan keyin 45 kun davomida yozma ravishda shikoyat arizasini berish huquqiga ega. 45 kun o'tgandan keyin da'volar qabul qilinmaydi. Abonent tekshirish natijalaridan norozi bo'lsa sudga murojaat qilish huquqiga ega.
- 3.10 SHartnomaning 3.9-bandini tekshirish o'tkazilayotgan vaqtda telefon ulangan bo'lishi kerak.
- 3.11 Telefon va Internet yoki boshqa oxirgi qurilmalar Abonentning aybi bilan ishlamagan vaqti uchun abonent to'lovi to'liq miqdorda undiriladi.

### 4. BAHSLI MASALALARNI HAL ETISH TARTIBI

- 4.1 Tomonlar bahsli masalalarni o'zaro kelishish yo'li bilan hal etadilar, tomonlar kelisha olmagun qadriga bahsli masalalar Xo'jalik yoki Hakamlik sudlari orqali hal etiladi.

### 5. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

- 5.1 Tomonlar shartnoma shartlari buzganlarida javobgarlik O'zbekiston Respublikasi «Fuqarolik kodeksi»ga, «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida»gi, «Telekommunikatsiyalar to'g'risida»gi qonunlarga, «Umumiy foydalanishdagi telekommunikatsiyalar tarmog'ida telefon aloqasi xizmatlarini ko'rsatish qoidalari»ga va amaldagi boshqa qonunlarga shuningdek ushbu shartnomaga muvofiq belgilanadi.

### 6. FORS-MAJOR

- 6.1 SHartnoma tuzilgandan so'ng bartaraf etilishi Tomonlarning ta'siri va istaklariga bog'liq bo'lmagan, vaqtincha yoki uzoq vaqt shartnomani zarur darajada amalga oshirishga xalaqit beradigan vaziyatlar sodir bo'lganda, ya'ni tabiiy ofatlar, noqulay ob-havo sharoiti, hukumat tadbirlari, hokimiyat organlarining qarorlari, harbiy nizolar, ichki tartibsizliklar va boshqa hollarda, yuqorida aytib o'tilgan holatlar mavjudligi tufayli tomonlar shartnoma majburiyatlarini buzgan deb hisoblanmadi va shartnoma majburiyatlarini bajarish muddatlari ushbu holatlar davom etish vaqtiga suriladi.
- 6.2 SHartnoma majburiyatlarini bajarish imkoniyatiga ega bo'lmagan tomon, darhol ikkinchi tomonni yuqoridagi holatlarning yuzaga kelganligi, shuningdek bartaraf etilganligi to'g'risida xabardor qilishi kerak.
- 6.3 Bartaraf etilishi mumkin bo'lmagan vaziyatlar sodir bo'lgani yoki ularni bartaraf etilgan haqida o'z vaqtida, 15 kundan ko'p bo'lmagan muddatda xabar bermagan tomon keyinchalik shartnoma shartlari bajarilmagan taqdirda, bu vaziyatni sabab qilib ko'rsata olmaydi.

### 7. SHARTNOMAGA O'ZGARTIRISH VA QO'SHIMCHALAR KIRITISH

- 7.1 SHartnomaga o'zgartirish va qo'shimchalar tomonlarning roziligi bo'yicha shartnomaga qo'shimcha Bitimni rasmiylashtirish yo'li bilan kiritiladi. Tomonlarning shartnomani o'zgartirish va to'ldirish to'g'risidagi Bitimi yozma ravishda bo'lgandagina va tomonlarning imzosi bilan tasdiqlangan taqdirda qonuniy kuchga ega bo'ladi.
- 7.2 Tomonlar o'rtasidagi shartnoma shartlariga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar uning ajralmas qismi bo'lib qoladi va kelgusida ularga amal qilish majburiydir.
- 7.3 SHartnoma tomonlarning kelishuviga ko'ra, «Qoidalar» o'zgaranda va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan boshqa hollarda qayta tuzilishi mumkin.

### 8. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI

- 8.1 SHartnoma amaldagi tartibga asosan g'aznachilik bo'linmasida ro'yxatga olingan kundan boshlab kuchga kiradi va 2022 yil «31» dekabr gacha amal qiladi.
- 8.2 SHartnoma quyidagi hollarda muddatidan oldin bekor qilinishi mumkin:  
- Tomonlarning roziligi bilan;  
- shartnoma majburiyatlarini tomonlardan biri tarafidan bajarilmaganda;  
- O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan boshqa holatlarda.
- 8.3 Ushbu shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lib, 2 nusxada tuzildi va tomonlarning har biriga bir nusxadan berildi.

### 9. TOMONLARNING YURIDIK MANZILLARI

#### OPERATOR

UZBEKTELEKOM AK SURXONDARYO  
FILIALI  
BOYSUN TELEKOMMUNIKATSIYA  
BOGLAMASI  
3351814 3353489  
(indeks, pochta manzili, telefon, faks)  
Boysun tuman Mexridaryo kuchasi 16  
h/r 2021 0000 2040 7483 8390  
Bank Termez AT Aloka bank  
Kod 00401  
STIR 203 366 731  
XXTUT 52300

Rahbar G. G'aforov  
(F.I.SH)

(imzo)

#### ISTE'MOLCHI Boysun tuman Maxalla va oilani qo'llab-quvvatlash bo'limi

(BYUJETDAN MABLAG OLUVCHINING NOMI)

MANZIL Boysun tuman Tog'chi maxallasi Shatola ko'chasi  
TEL/FAKS 998 763351087  
h/r 100022860222047011906259001  
byujetdan mablag oluvchi STIR: 207319707  
OKONX 97700  
Gaznachilik bulinmasi nomi Boysun tuman G'aznachilik bo'limi  
Gazna x/v 23402000300100001010  
Bankning nomi Markaziy bank Toshkent shaxri XKKM  
MFO 00014  
Gaznachilik bulinmasi STIRi 201122919

Rahbar S.Djurakulova  
(F.I.SH)

(imzo)

Bosh yuristkonsult

26.01.22

J. Turdimurodov